

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

TOMCHILATIB SUG'ORISH TEXNOLOGIYASINI QO'LLANILISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Axunov Akmaljon Akramovich - “

BAXODIR LOG'ON TEKSTIL” MChJ qo'shma korxonasi tasarrufidagi Quva “Paxtachilik” klasterida bosh mutaxassis

Ergashev Nodirbek Yuldashalievich

q.x.f.f.d - PSUEAITI Farg'ona ilmiy-tajriba stansiyasi ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari

Annotatsiya

O'zbekiston Respublikasining sug'orilmaydigan zahira er maydonlarini sug'oriladigan er maydonlariga qo'shish, kam sarf xisobiga ko'p daromad olish, irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, eng yahshi innovatsion sug'orish usulini tanlash, tomchilatib sug'orish texnologiyasini eng yuqori darajada Respublikada joriy qilish o'rganilgan. Tomchilatib sug'orish texnologiyasini boshqa sug'orish usullari va tizimlariga nisbatan unumli va samarali ekanligi isbotlangan.

Аннотация: Запасные земельные площади включит в число орошаемых, за счёт малых затрат получит большие прибыли, поставит на правильный путь ирригацию и мелиорацию, выберет самый лучший инновационный способ орошения. В Узбекистане хорошо изучена технология капельного орошения. Доказано преимущество капельного орошения среди других технологий.

Annotation; It is learned to put into practice drop irrigating technology in Republic, choosing the best innovation irrigating, using correctly of innovation and land reclamations' systems and adding no-irrigating reserve ground to irrigating reserve ground in Republic of Uzbekistan. Drop irrigating technology is confirmed to be more productive and fertile than other irrigating ways and systems.

Tayanch so'z va iboralar: irrigatsiya, melioratsiya, innovatsiya, agrotexnika, agrotexnik ishlar, sug'orish usullari, erning ball boniteti, unumdor qatlam, sifat ko'rsatkichlari, texnologiya, er va suv.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

Ключевые слов и выражение: irrigatsiya, melioratsiya, innovatsiya, agrotexnika, agrotexnicheskie raboty, sposoby orosheniya, bonitetnyy ball, pochvy, plodorodnyy plast, pokazatel kachestva texnologiya, pochva i voda.

Support phrase and words: irrigation, land-reclamation, innovation, agro-technical words, ways of irrigating, ball bonitete of ground, fertile layer, degrees of quality, technology, water and ground.

Kirish. Dala maydonlarini sug'orishni to'g'ri tashkil qilish – ekin maydonini to'g'ri tanlash, to'g'ri ishlov berish o'g'itlash kabi ishlardan ham muhimroq sanaladi. Bog'larni sug'orishda O'zbekistonda turli usullar foydalanilib kelinadi. Bog'larni sug'orishning qator usullaridan : yomg'irlatib sug'orish, tuproq ostidan sug'orish, tomchilatib sug'orish, mayda zarrali sug'orish kabilar kiradi. Bu usullar qo'llanilganda tuproq bir tekis va me'yorida namlanadi, er qatqaloq bo'lmaydi. Begona o'tlar chiqishi kamayadi hamda suv bir necha baravarga tejaladi hamda sug'orilgandan so'ng erni yumshatish va boshqa bir qator agrotexnik ishlar hajmi kamayadi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining sug'oriladigan er maydonlarining aksariyat qismi tuproq sathidan sug'orilib kelinmoqda. Bu usul bilan sug'orilganda suv sarfi juda ko'p bo'lishi va aytilgan natijalarga erisha olmayotganligimiz takror va takror aytilib kelinmoqda.[1]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 31-oktabr kuni qishloq xo'jaligini kompleks rivojlantirish, sohaga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, mahsulotlar eksportini oshirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishi o'tkazildi. Yig'ilishda quyidagi asosiy masalalar gapirib o'tildi:

-Suvni tejoychi texnologiyani qo'llash hisobiga 50-60 foiz suvni iqtisod qilish mumkin. Birgina ko'chma egiluvchan quvurlardan foydalanish suvni 10-15 foizga, tomchilatib sug'orish esa 35-65 foizga tejash imkonini beradi. Lekin, tomchilatib sug'orish tizimi juda kam maydonlarda joriy etilganligi;

- Yig'ilishdan kelib chiqib, 2019-2021 yillarda, paxta-to'qimachilik klasterlari tashkil etish va fermer xo'jaliklarining paxta maydonlarida tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy qilish ko'lamini kengaytirish zarurligi ta'kidlandi.[4]

Bundan tashqari O'zbekistonda paxta xomashyosini etishtirishda tomchilatib sug'orish texnologiyasini keng ko'lamda joriy qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 dekabrda "Paxta xomashyosini etishtirishda tomchilatib sug'orish texnologiyalaridan keng foydalanish uchun qulay



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

shart-sharoitlar yaratishga oid kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4087 sonli Qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 6 fevraldagi "Paxta xomashyosi etishtiruvchilarining tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy qilish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 103-sonli qarorlarga asosan "Agrobank" ATB ning 2019 yil 18-fevralda "Paxta xom ashyosi etishtiruvchi qishloq xo'jalik korxonalarini tomonidan tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy qilishga tijorat kreditlari ajratish, ajratilgan kreditlar va hisoblangan foizlarni so'ndirilishi to'g'risida" 13/2-sonli Boshqaruv Qarori qabul qilindi.[4]

Demak tomchilatib sug'orish usuli katta ahamiyatga ega ekan. Agar kelajakda suv zaxiralari kamayadi degan bashoratlar to'g'ri chiqsa, u holatda suvni tejash - bu mamlakat o'z kelajagani ta'minlashini anglatadi. Tomchilatib sug'orish juda ko'p suv manbalarini tejaydi. Ammo, fermer xo'jaliklari bu usulni yaxshi o'rganishi va qayerda, qancha foyda keltirishini bilishi zarur.[2]

Tomchilatib sug'orish risoladagidek ishga solinsa, barcha ekinlar uchun ish beradi. Bu bosh masala emas. Asosiy vazifa infratuzilmani yo'lga qo'yish. Masalan, dehqonlarga kerakli jihozlarni qanday ishlatish va o'rnatishni o'rgatish masalalarini ko'rib chiqish, kerak bo'lsa, qo'shimcha malaka oshirish amaliy dasturlarini tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.[2]

Bundan tashqari, O'zbekistonda hali tomchilatib sug'orish uchun kerakli barcha jihozlar mavjud emas. To'g'ri xozirgi kunda mamlakatimizda yumshoq turdagi quvurlar va quvurlarning ba'zi qismlarini ishlab chiqarishi mumkin. Lekin hozirda butun tizim uchun zaruriy asbob-uskuna va jihozlarni ishlab chiqara olganicha yo'q. Shuning uchun shu kunlarda tomchilatib shug'orish texnologiyasini benuqson o'rnatish fermer xo'jaliklari uchun ancha qimmatga tushadi. Paxta narxi arzonligi esa rost. Ammo fermerlar tomchilatib sug'orishni birinchi o'rinda sarf-xarajadni qoplaydigan qimmatroq ekinlarga qo'llashadi. Yoki O'zbekiston hukumati bu tizimini butunlay davlat xisobidan moliyalashi ham mumkindir. Chunki suvni asrash - ba'zida mahsulot narxi qimmatlashishidan ko'ra muhimroq vazifa. Dehqonlar bu tizimna to'la o'zlashtirib olganlaridan keyin esa, tomchilatib sug'orish ortidan foyda ko'ra boshlashadi.[1]

Bundan tashqari Mamlakatimizda suv etishmovchiligidan foydalanilmay turgan zahira er maydonlari katta gektarni tashkil qiladi. Bu tizimni yo'lga qo'yish bilan ushbu zahiradagi er maydonlarini foydalanish maydoniga kiritish mumkin.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

Sharoit va manzilidan kelib chiqib bog'zor yoki yana boshqa ekinzorlarga aylantirish ehtimoli ko'payadi. [1]

Shunga ko'ra, qishloq xo'jaligini isloh va modernizatsiya qilish bo'yicha qabul qilingan dasturga muvofiq 2016—2018-yillarda 240 ming gektar maydonda paxta va boshqoli don ekishni qisqartirish xisobiga ekin maydonlarini optimallashtirish tadbirlari amalga oshirilgan. Ushbu maydonlarga joriy yilda yuqori daromadli, eksportbop ekinlar, jumladan, 73,5 ming gektar sabzavot, 19 ming gektar kartoshka, 15,1 ming gektar poliz, 15,7 ming gektar soya, 3 ming gektar sholi, 44,3 ming gektar ozuqa ekinlar ekilgan hamda 23 ming gektar intensiv bog', 8,3 ming gektar tokzor va 600 gektar zamonaviy issiqxonalar barpo etilgan. [3]

2018-yilning o'zida Respublika bo'yicha 9,1 ming gektar intensiv bog', 7,1 ming gektarda tokzor barpo etilgan, 4,9 gektar eski bog' va 2,4 ming gektar tokzorlar yangilandi. [3]

Shu o'rinda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, Samarqand viloyati Ishtixon tumanidagi "Ishtixon nurli davr" fermer xo'jaligida Isroil texnologiyasi asosida tomchilatib sug'orish usuli qo'llanilganda yoqilg'i-moylash materiallari sarfi 54 foizga kamaygan, hosildorlik esa 45 sentnerga yoki qariyb uch barobarga oshgan. [3]

Demak yuqorilardan kelib chiqib, aytishimiz mumkinki, sug'orish tizimida va qishloq xo'jalik maxsulotlarini sifatli, etarli darajada eksportbop maxsulotlarni jahon bozoriga olib chiqishimiz uchun albatta biz suv tejaydigan inavatsion texnologiyalar ustida ishlashimiz va doimo yangiliklar yaratish ustida tinimsiz mexnat qilib borishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quva tuman "Tomorqadan foydalanish ilmiy-tadqiqot markazi"ning ilmiy-tadqiqot ishlari na'munalari va tomchilatib sug'orish texnologiyasi.
2. X.X.Kimsanboyev, A.Y.Yo'ldoshev, M.M,Zoxidov, K.X.Xalilov, I.R.Siddiqov, T.A.Qosimovlar. "O'simliklarni kimyoviy ximoya qilish" adabiyoti. O'qituvchi nashriyoti 1997 yil. (10-15 b)
3. Farg'ona Davlat universiteti "Agrosanoat majmuasini kompleks rivojlantirish istiqbollari". Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2009 yil aprel. (24-25 b)
4. Internet ma'lumotlari. (Google.ru)
5. w.w.w.ziyonet.uz. (ilmiy axborot bo'limidan)

